

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA INSON OMILINING ROLI

Egamova Komila Bekchon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti komila20011009@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatdagi barcha sohalarida turli ko'lamda kengayib borayotgani natijasida ko'plab o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu tezisda raqamli transformatsiyalash jarayonlarida inson omilining ahamiyati va uning ish samaradorligida ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: raqamli taransformatsiya, raqamlashtirish, raqamli kompetensiyalar.

Raqamli transformatsiyalashuv raqamli iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya keng ma'noda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi muammolarni bartaraf etish va sifat jihatdan yangi darajaga o'tish jarayonidir. Shu bilan birga u inson tafakkuri, qarashlari va o'rganish madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarida inson asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarida texnologiyalarni joriy etishda insonning raqamli savodxonligi, motivatsiya va moslashuvchanligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababdan, tashkilotlarda xodimlar o'rtasida raqamli kompetensiyalarni oshirish dasturlarini yaratish zarur.

“Biz zamonaviy taraqqiyotning kaliti aynan ilm-fan va ta'limda ekanini chuqur anglab, inson kapitaliga investitsiya kiritishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik”- Sh.M.Mirziyoyev.

Har qanday o'sish va rivojlanishning ortida haqiqiy ilmiy va malakali kadrlar va ularni to'g'ri yo'naltira oladigan rahbarlar turadi. Tashkilotlarda xodimlar va rahbarlarning transformatsiya jarayoniga bevosita jalb etilishi, ularning qo'llab quvvatlashi va o'rganishga tayyor ekanligi muvaffaqiyatli natijalarga erishishning poydevori bo'la oladi.

Transformatsiya jarayonlarida inson omilining asosiy jihatlari:

1. O'zgarishlarga tayyorlik: Xodimlar yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyor bo'lishi, yangiliklardan qo'rqish va qarshilik ko'rsatishni yenga olishi kerak.
2. Ko'nikmalarni rivojlantirish: Raqamli vositalarni samarali ishlatish uchun xodimlarning malakasini oshirish, doimiy ravishda o'qitish zarur.
3. Madaniyatni o'zgartirish: Raqamli transformatsiya yangi ish madaniyatini talab qiladi, bunda hamkorlik, innovatsiya va tezkor qaror qabul qilishga e'tibor qaratiladi.
4. Rahbarning roli: Rahbarlar transformatsiya jarayonida xodimlarni qo'llab-quvvatlashi, ularga motivatsiya berishi va ularga yo'l ko'rsatishi kerak.

Shuningdek, texnologik o'zgarishlarni odamlarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish zarur. Raqamli vositalar odamlarga yordam berishi va ularning ishini osonlashtirishi kerak. Jumladan, so'ngi yillarda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida raqamlashtirish jarayonlari sezilarli darajada tezlashdi. Ayniqsa 2019-2021-yillar orlig'ida

COVID-19 tufayli yuzaga kelgan pandemiya davrida bu sohalarda raqamli vositalardan foydalanish majburiy holga aylandi. O'zbekiston tajribasida bu holat raqamlashtirishni tezlashtirdi va inson omilining o'rnini yanada muhimlashtirdi. Qisqa muddat ichida onlayn va masofaviy ta'limga o'tish, teletibbiyot va elektron tibbiyot xizmatlarining yo'lga qo'yilishi bizdagi raqamlashtirish bilan bog'liq muammolarni va xodimlarning raqamli kompetensilari yetarli emasligini ko'rsatib qo'ydi. Natijada o'qituvchilar Zoom, Google Meet, Eduon va Ziyonet kabi platformalarda dars o'tish, onlayn nazorat va baholash usullarini o'zlashtirdilar. Bu jarayon ularning raqamli malakasini oshirishga va pedagogik yondashuvlarini yangilashga turtki bo'ldi. Shundan keyin tizimda online platformalardan va video konferensiyalardan foydalanish ko'lami kengaydi. Xalq ta'limini boshqarish tizimi, EDU LINK kabi axborot tizimlaridan foydalanish ommalashdi. Pandemiya insonlarning raqamli madaniyatini shakllantirdi, ularni yangi ta'lim va mehnat muhitida tez moslashishga o'rgatdi. Bu esa inson omilining raqamli transformatsiyadagi rolini yanada mustahkamladi. Binobarin, so'ngi yillarda ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat xizmatlari kengaytirildi.

Raqamli transformatsiya samarali bo'lishi uchun inson resurslarini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish zarur:

- okadrlarni uzluksiz o'qitish va qayta tayyorlash;
- oraqamli psixologiya va ijtimoiy moslashuv bo'yicha treninglar tashkil etish;
- inson markazli boshqaruv tamoyillarini joriy etish.

Shu bilan birga raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan birga, insonning o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchanligi, ishonchi va savodxonligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Raqamli transformatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli tadbiq etilishi, avvalo, inson omiliga uzviy bog'liq. Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson omilini rivojlantirish, raqamli madaniyatni shakllantirish va texnologik savodxonlikni oshirish – O'zbekistonning kelajakdagi raqamli taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.- Toshkent 2020.
2. UNDP Uzbekistan "Digital transformation in education and health after" COVID-19 (2023).
3. UNICEF Uzbekistan "Teacher-led digital transformation initiatives" (2022).
4. Web-journal.ru. Pandemiya davrida ta'lim tizimida raqamlashtirishning ijobiy ta'siri. (2024).
5. Uzdaily.uz. UNFPA and UZINFOCOM join forces for digital transformation of healthcare in Uzbekistan (2023).